

**BIR UMR GO‘YOKI AZIM CHINORDIR YOXUD BERDAQNI ANGLAMAY
TURIB...**

Xoliqova Gullola Yoqub qizi

ToshPTI Pediatriya ishi va tibbiy biologiya fakulteti

4-kurs 409-guruhi talabasi

Email: xoliqovagullola0529@gmail.com

Utebaeva Baxargul Umirbay qizi

ToshPTI 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti

3-kurs 317-guruhi talabasi

Email: bakhargulutebaeva@gmail.com

Annotatsiya: Qoraqalpoq adabiyotining asoschilaridan biri Berdaq (Berdimurod) Qarg‘aboy o‘g‘lining Sharq madaniyati va adabiyotini rivojlantirishga kelajak avlodni Vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini rivojlantirishga qo‘sghan beباھو hissasi ulkandir. Ushbu maqolada shular haqida qisqacha so‘z yuritsak.

Аннотация: Один из осново положников каракалпакской литературы, сын Бердака (Бердимурада) Каргабой, внесне оценимый вклад в развитие восточной культуры и литературы, в дело воспитания подрастающего поколения в духе любви и верности Родине, людей, развитие дружеских отношений междуразными народами. Кратко поговорим о них в этойстатье.

Annotation: One of the founders of Karakalpak literature, the son of Berdak (Berdimurad) Kargaboy, made an invaluable contribution to the development of Eastern culture and literature, to the work of educating the next generation in the spirit of love and loyalty to the Motherland, the people, and the development of friendly relations between different peoples. Let’s talk about them briefly in this article.

Kalit so‘zlar: milliy mavqe, hassos shoir, qadr-qimmat, o‘lmas meros, g‘urur, iftixor, porloq xotira.

Ключевые слова: национальный статус, чуткий поэт, ценное, неизгладимое наследие, гордость, гордыня, светлая память.

Key words: national status, sensitive poet, valuable, indelible heritage, pride, pride, bright memory.

Har bir xalqning o‘zligini, milliy mavqeい va qadr-qimmatini dunyoga tanituvchi ulug‘ farzandlari bo‘ladi. Ularning qoldirgan o‘lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o‘tmishini, balki buguni va kelajagini ham belgilaydi. Biz ulug‘ Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq, butun xalqimizning ana shunday ardoqli farzandlaridan biri sifatida doimo qadrlaymiz. Har yili mamlakatimizda 27-noyabr kuni qoraqalpoq elining buyuk shoiri Berdimurot Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaqning tavallud ayyomi keng nishonlanadi. Xususan Qoraqalpog‘istonning shahar va tumanlarida, ma’naviyat va ma’rifat maskanlarida berdaqxonlik tadbirlari o‘tkaziladi. Uning she’r va dostonlaridan namunalar o‘qiladi. Berdaq siyoshi haqiqiy ma’noda nainki qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g‘urur va iftixori timsoliga aylangan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra Berdaq 1827 yilda Orolbo‘yidagi Bo‘zatov tumani hududida tavallud topgan. Bolaligidan ma’rifatga, adabiyotga mehr qo‘ydi. Qoraqalpoq xalqining maqol va matallari, lapar va dostonlarini qiziqish bilan o‘rgandi. Avval ovul maktabida, keyin o‘sha darvning yirik ta’lim maskanlaridan hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida saboq oldi. Diniy va dunyoviy fanlar bilan birga Alisher Navoiy, Abdurahmon Fuzuliy, Abdulqodir Bedil, Fariduddin Attor, Maxtumquli, So‘fi Ollyor singari sharq mutafakkirlari hayoti va ijodini astoydil o‘rgandi.

Berdaqning hayot yo‘li va ijodi haqida qancha ko‘p so‘zlasakda oz. Shuning uchun yoshlarimiz o‘rtasida Berdaqning ijodini keng targ‘ib qilish va asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va yosh avlodga yoshlarimizga xalqimizga ommaga tanishtirish lozim. Mashhur adabiyot va san’at arbobi xalq shoirining porloq

xotirasi hurmatiga Nukus va boshqa shaharlar ko‘chalariga, bog‘ va xiyobonlarga, kinoteatrlarga Berdaqning nomi berilgan.

Mamlakatimizdagi nufuzli teatrlardan biri Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri nafaqat o‘zimizda balki chetellarda ham mashhur. Berdaq xalqning o‘tli dardiga malham bo‘luvchi harorat bag‘ishlash barobarida, kitobxonga hassos shoir dard-alamlaridan xabar yetkazishga qodir bo‘lgan buyuk xalq kuychisidir. Buni yaxshi anglagan shoir o‘z sherlaridagi kechinmalar mohiyatiga ishora qilish orqali kitobxonni bilim olish uchun diqqatini qaratish kerak bo‘lgan nuqtalarga alohida urg‘u berib asarlar she’rlar yozgan. Buyuk shoir Berdaqning ijodi va hayot yo‘lini chuqur o‘rganmog‘imiz biz uchun, barcha adabiyotshunoslar, kitobxonlar uchun, yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilishlarini yanada jonlantirish lozim deb bilamiz. Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda innovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she’rlarini zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa video lavxalarni ko‘plab tillarda tayyorlash hamda kinofilmlar orqali Berdaqning faoliyatini yoritsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu borada “Men turli sinov va kurashlarda toblangan, iymon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azmu-shijoatiga ishonaman.” deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ilm-fan taraqqiy etmagan hech bir davlatda erkin va farovon jamiyat qurib bo‘lmasligini hayotning o‘zi takror-takror isbotlagan. Shiddatli va tez o‘zgarayotgan hozirgi zamonimizda o‘tmish va keljakni bir-biriga bog‘lovchi zanjir yoshlarning yuksak darajadagi bilim salohiyati va barcha sohalarda ilg‘or darajadagi bilimlari orqali ekanligini o‘tgan va hozirgi zamondagi adiblarning barcha asarlarida ta’kidlangan.

Xulosa o‘rnida hech ikkilanmay shuni aytolamanki, Qoraqalpoq xalqining serqirra ijodkorlaridan biri Berdaq ijodi va hayot yo‘lini chuqur o‘rganib barcha insoniy fazilatlarni yanada mustahkamlashimiz, talaba yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishimiz lozim. Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda yuqori sifatli inovatsiyalar danfoydalanib Berdaqning she’rlarini zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa video lavxalari tayyorlab borilmoqda hamda

kinofilmlar yaratish orqali ijodkorning faoliyatini ommaga tanishtirishlar davom etmoqda. O'ylaymizki, ijodkorning barcha she'rlari, dostonlari doimo xalqimizning yuragidan joy olib kelmoqda.

Yillar o'tgan sayin biz amalga oshirayotgan targ'ibotlar albatta o'z samarasini ko'rsatadi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Из каракалпакской классики "БЕРДАХ".
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqidan. 30.08.2020 yil.
3. B. Qurbanboyev Berdaq va o'zbek adabiyoti, T., 1986.
4. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo'llanma. Nukus2017 yil.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqidan. 30.08.2020 yil